

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

BOYMURODOV BOTIR PANJI O'G'LI

**NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA FUQAROLAR ISHTIROKINING
NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI**

12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi.
Huquqiy ta'limotlar tarixi

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of the Doctoral (PhD) dissertation abstract

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (PhD)

Boymurodov Botir Panji o'g'li

Norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari3

Boymurodov Botir Panji o'g'li

Issues of improving the theoretical and legal basis of citizens' participation in the process of norm-making22

Боймуродов Ботир Панжи угли

Вопросы совершенствования теоретико-правовой основы участия граждан в процессе нормотворчества.....40

Эълон қилинган илмий ишлар рўйхати

Список опубликованных научных работ
List of published scientific works.....44

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

BOYMURODOV BOTIR PANJI O‘G‘LI

**NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA FUQAROLAR ISHTIROKINING
NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI**

12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi.
Huquqiy ta’limotlar tarixi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Yu623 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus) Ilmiy kengashning veb sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Saydullayev Shaxzod Alixanovich
yuridik fanlar nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Yakubov Shuhrat Ummataliyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Berdiyev Shuhrat Namozboyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
huzuridagi Qonunchilik muammolari va
parlament tadqiqotlari instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi Dsc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 16-may kuni soat 14.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail:info@tsul.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1144-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 2-mayda tarqatildi.

(2023-yil 2-maydagi 8-raqamli reestr bayonnomasi).

R.R.Xakimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

B.A.Narimanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

I.R.Bekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy faolligi hamda ularga bo‘lgan hukumatlarning munosabati nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan turli reytinglarda doimiy ravishda o‘rganib borilmoqda. Jumladan, Jahon banki tomonidan har yili e‘lon qilinadigan “Aholining fikrini inobatga olish va hisobdorlik” (Voice and Accountability) reytingida aholining davlat hokimiyati faoliyatida ishtirok etishi, axborotlardan erkin foydalanishi, parlamentga nisbatan ishonch, ochiq byudjet, hukumat faoliyatining shaffofligi va hisobdorligi kabi mezonlarga alohida urg‘u beriladi. 2021-yilda e‘lon qilingan “Aholining fikrini inobatga olish va hisobdorlik” (Voice and Accountability) reytingida O‘zbekiston 2020-yilga qaraganda 12 pog‘onaga o‘sib, 193 davlat orasida 169-o‘rinni egallagan¹. Ushbu ko‘rsatkichlar davlat va jamiyat hayotining turli sohalarida, xususan, norma ijodkorligi faoliyatida fuqarolarning ishtiroki dolzarb ahamiyat kasb etayotganligidan guvohlik beradi.

Jahonning eng taraqqiy etgan davlatlari parlamentlari o‘z faoliyatlarida jamoatchilik, jumladan fuqarolar bilan maslahatlashuv amaliyotiga ahamiyat berayotganligi fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida ishtirok etishlariga oid masalalarni ilmiy-nazariy tadqiq etishni, amaliyotda uchraydigan muammo va kamchiliklarga huquqiy jihatdan baho berishni talab etmoqda. Xususan, norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining nazariy-huquqiy asoslarini tadqiq etish va takomillashtirish, shakllarini aniqlash, asosiy prinsiplarni belgilash bilan bog‘liq masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-siyosiy islohotlar va modernizatsiyalash jarayonlarida fuqarolarni norma ijodkorligi jarayoniga jalb qilishga konseptual va strategik ahamiyatga ega masala sifatida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi”da fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, tadbirkorlik subyektlari va ilm-fan vakillarini jalb etish ishlarini samarali tashkil etish orqali norma ijodkorligi jarayoniga jamoatchilik muhokamalarining ta‘sir darajasini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan bo‘lsa², “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish maqsadi doirasida qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuvlar o‘tkazish amaliyotini takomillashtirish vazifalari belgilandi³. Xususan, huquqiy normalarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida fuqarolar ishtiroki nechog‘li muhim o‘rinda ekanligini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish masalasiga nisbatan yondashuv ham ko‘rsatib berdi. Xususan, qonun loyihasini

¹ <https://www.theglobaleconomy.com>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 08.08.2018-y., 06/18/5505/1639-son; 09.11.2019-y., 06/19/5870/4010-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son

shakllantirishning dastlabki bosqichlaridan boshlab fuqarolarning taklif va mulohazalariga katta e'tibor qaratilgan bo'lsa, keyingi bosqichda loyiha umumxalq muhokamasiga qo'yildi va muhokamadan so'ng referendum orqali qabul qilinishi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992), "Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to'g'risida"gi, "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi (2006), "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi (2021) O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni (2018) va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda norma ijodkorligida fuqarolar ishtirokining nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar quyidagi yo'nalishlarda olib borilgan:

Birinchi yo'nalish, tadqiqot ishining prinsiplar tomonlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ma'ruzalarida ko'tarilgan bo'lib, ularda norma ijodkorligi jarayoniga fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan fuqarolarni keng jalb qilishning eng muhim jihatlari ochib berilgan.

Ikkinchi yo'nalish, norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki masalasi nisbatan yangi tadqiqot obyektlaridan bo'lganligi sababli, yuridik fanda ushbu mavzu doirasidagi masalalar to'liq o'rganib chiqilmagan bo'lsa-da A.Akilov, M.Axmedshayeva, I.Bekov, Sh.Berdiyarov, Z.Islamov, M.Najimov, O'.Muxamedov, M.Mirakulov, X.Odilqoriyev, Sh.Saydullayev, A.Sodikov, S.Sultonova, R.Xakimov, X.Ruzmetov, A.Xudoyberdiyev, O.Xusanov, A.Xo'janazarov, Sh.Yakubov kabi huquqshunos olimlarning ushbu sohani u yoki bu jihatlarni ochib berishga qaratilgan tadqiqotlari e'lon qilingan¹.

Uchinchi yo'nalish, MDH olimlaridan A.J.Bastaubayeva, S.G.Guseva, N.N.Dimitrov, S.I.Dobosh, T.Y.Konyaxina, V.S.Nersesyans, N.V.Nikishova, M.A.Matveeva, Y.M.Muxametkaliyeva, R.V.Shagiyeva, Y.N.Yarmonovalar norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining nazariy-huquqiy asoslari borasida tupli xil tadqiqot ishlarini amalga oshirgan².

To'rtinchi yo'nalish, boshqa xorijiy mamlakatlarda norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki masalasi bilan B.S.Noveck, T.M.Chapurko, J.Mendes, J.Bryson, J.L.Marti, S.Kathryn, O.O.Quick, R.Onufreiciuc, O.N.Ryaboshapko,

¹ Mazkur mualliflarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

² Mazkur mualliflarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

V.Alsina kabi olimlar shugʻullangan va fuqarolar ishtirokining nazariy asoslari va yuridik tabiatini ochib bergan¹.

Yuqorida sanab oʻtilgan ilmiy-tadqiqot natijalarini tahlil qilish orqali shunday xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining nazariy va huquqiy asoslari chuqurroq tadqiq etilishi hamda qonunchilikda tizimli hamda toʻliq ifodalanishi kerak.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Tadqiqot ishi Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirishning asosiy yoʻnalishlari” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Oʻzbekiston Respublikasida norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot ishining oldiga qoʻyilgan maqsadga erishishda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida ishtiroki nazariy asoslarini tahlil qilish;

norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining yuridik tabiatini ochib berish;

norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining prinsiplarini yoritib berish;

norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokini turli mezonlar asosida tasniflash;

fuqarolar norma ijodkorligi jarayonida ishtirokining huquqiy asoslariga ilmiy-nazariy baho berish;

norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining asosiy shakllarini ajratish va ilmiy-nazariy jihatdan asoslash;

fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida samarali ishtirokini belgilovchi omillarni koʻrsatib berish;

norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki borasida xorij tajribasini oʻrganish va uni milliy qonunchilikka tatbiq qilish masalalarini tadqiq qilish;

norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokiga oid qonunchilikni takomillashtirishning asosiy yoʻnalishlarini koʻrsatib berish;

Oʻzbekistonda norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki bilan bogʻliq huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Oʻzbekiston Respublikasida norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qoʻllash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda Davlat va

¹ Mazkur mualliflarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatida keltirilgan.

huquq nazariyasida mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, tasniflash, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

fuqarolar referendum shaklida norma ijodkorligi jarayonida ishtirok etganda unda bevosita normativ-huquqiy hujjat qabul qiluvchi subyektga aylanishi zarurligi asoslab berilgan;

vakolatli davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi norma ijodkorligi faoliyatida fuqarolar ishtirokining samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi omillar ekanligi asoslangan;

normativ-huquqiy hujjat qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organ, zarur bo'lganda, normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashni davlat organlariga, ilmiy va boshqa tashkilotlarga, ayrim fuqarolarga belgilangan tartibda, o'z vakolatlari doirasida topshirishga yoki ularga shartnoma asosida buyurtma berishga haqli ekanligi asoslab berilgan;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasi natijalarida kelib tushgan fikr-mulohazalar va (yoki) takliflar rad etilgan taqdirda, ishlab chiquvchi ularni rad etish sababini ko'rsatib berishi shartligi asoslangan;

fuqarolar jamoatchilik nazorati shaklida norma ijodkorligi jarayonida ishtirok etishlari mumkinligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Regulation.gov.uz – normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

Advice.uz – huquqiy axborot portalida norma ijodkorligi faoliyati bo'yicha alohida bo'lim tashkil etish tavsiya etilgan;

parlament tomonidan fuqarolar uchun qonun ijodkorligi jarayoni haqida sodda va tushunarli tilda ma'lumot beruvchi elektron qo'llanmalar turkumini yaratish maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan;

ijtimoiy sheriklik munosabatlarining subyektlari sifatida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini ham belgilash bo'yicha qonunchilikka takliflar bildirilgan;

qabul qilinishi rejalashtirilgan yoki loyihasi muhokama qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida ma'lumotlarni belgilangan tartibda e'lon qilmaganlik uchun ma'muriy ta'sir chorasini ko'rish to'g'risida qonunchilikka taklif bildirilgan;

huquq ijodkorligi va norma ijodkorligi tushunchalari o'zaro farqlangan holda milliy huquqshunoslikda huquqiy norma ijodkorligi tushunchasining nazariya va amaliyotga tadbiiq etilishining maqsadga muvofiqligi asoslab berildi;

norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining shakllari va ularning bir-biri bilan uzviy aloqadorligi yuzasidan nazariy-huquqiy asoslar keltirildi;

norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining yuridik tabiati ochib berildi;

norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan norma ijodkorligiga oid qonunchilik hujjatlarini inkorporatsiya ko‘rinishida tizimlashtirish taklif etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot davomida foydalanilgan usullar, murojaat qilingan ilmiy-nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, rivojlangan davlatlar tajribasi va milliy qonunchilik normalarining o‘zaro tahlili asosida xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, natijalarning yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingani, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish, qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda “Davlat va huquq nazariyasi”, “Norma ijodkorligi” kabi o‘quv modullarni takomillashtirish va metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida ishtirokini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishda, shuningdek norma ijodkorligi sohasida tadqiqotlarni o‘tkazishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar quyidagilarda foydalanilgan:

fuqarolar referendum shaklida norma ijodkorligi jarayonida ishtirok etganda bevosita normativ-huquqiy hujjat qabul qiluvchi subyektga aylanishi to‘g‘risidagi taklif O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasi ikkinchi qismini ishlab chiqishda e‘tiborga olingan (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2022-yil 18-noyabrdagi 04/10-10-189-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan subyektlar doirasini belgilashga xizmat qilgan;

norma ijodkorligi faoliyatining samaradorligiga bevosita ta’sir etuvchi omillar sifatida vakolatli davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi ekanligi to‘g‘risidagi taklif O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunining asosiy prinsiplarini ishlab chiqishda e‘tiborga olingan (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2022-yil 18-noyabrdagi 04/10-10-189-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi oshkoralik prinsipining norma ijodkorligi faoliyatiga kirib kelishiga xizmat qilgan;

normativ-huquqiy hujjat qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan organ, zarur bo‘lganda, normativ-huquqiy hujjat loyahasini tayyorlashni davlat organlariga, ilmiy va boshqa tashkilotlarga, ayrim fuqarolarga belgilangan tartibda, o‘z vakolatlari doirasida topshirishga yoki ularga shartnoma asosida buyurtma berishga haqli ekanligi haqidagi fikrlari O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 22-moddasini takomillashtirishda inobatga olingan (Oliy

Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2022-yil 11-oktyabrdagi 06-13/52-son dalolatnomasi). Ushbu taklifni amalga oshirilishi normativ-huquqiy hujjatni ishlab chiqish jarayoniga fuqarolarni jalb qilish imkoniyatini yaratgan;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasi natijalarisida kelib tushgan fikr-mulohazalar va (yoki) takliflar rad etilgan taqdirda, ishlab chiquvchi ularni rad etish sababini asoslashi shartligi haqidagi takliflar O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasini shakllantirishda e‘tiborga olingan (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2022-yil 18-noyabrdagi 04/10-10-189-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari jamoatchilik muhokamasining eng muhim o‘ziga xos xususiyatlarini belgilashga xizmat qilgan;

fuqarolar jamoatchilik nazorati shaklida norma ijodkorligi jarayonida ishtirok etishlari mumkinligi haqidagi takliflardan O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 53-moddasi to‘rtinchi qismini takomillashtirishda e‘tiborga olingan (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2022-yil 18-noyabrdagi 04/10-10-189-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi normativ-huquqiy hujjatlar ijrosining jamoatchilik monitoringi va nazoratining o‘rnatilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy anjumanda, jumladan 3 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 15 ga yaqin ilmiy ish, jumladan, ilmiy jurnallarda 8 ta (3 ta xorijiy nashrlarda) va ilmiy to‘plamlarda 5 ta ilmiy maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 8 paragrafdan iborat uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar**

ishtirokining nazariy-huquqiy tahlili» deb nomlanib, ushbu bobda norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokiga oid tushunchalar tahlili, norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining yuridik tabiati va fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida ishtirokining tasnifi va asosiy prinsiplari tadqiq etilgan.

Tadqiqotchi huquqshunos olimlarning (I.Bekov, M.Axmedshayeva, X.Odilqoriyev, Z.Islamov, Sh.Saydullayev, A.Sodikov, S.Sultonova, A.Xo‘janazarov, Y.Yarmonova, L.Morozova, V.Nersesyans) yondashuvlari tahlili asosida norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirishda muhim fundamental tushunchalar va prinsiplar, ularning yuridik tabiatini tahlil qilgan. Shu bois, dissertatsiyaning ushbu bobi doirasida norma ijodkorligi va huquq ijodkorligi qiyosiy o‘rganilgan holda ushbu tushunchalarning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatib berilgan.

Dissertatsiyada norma ijodkorligi tushunchasiga nisbatan nazariy va rasmiy huquqiy yondashuvlar bir-biridan farq qilishini qayd etilgan holda, norma ijodkorligi barcha turdagi normalar, jumladan texnik va ijtimoiy normalarning barchasini o‘z ichiga olishi asoslangan, ushbu holat yuridik texnikaning umumiy qoidalariga zid kelishi ko‘rsatib berilgan. Tadqiqotchining fikricha, qonunchilikda qo‘llanilayotgan har bir tushuncha yagona ma‘noga ega bo‘lishi zarur va turli xil talqin qilinishi mumkin emas. Mazkur muammoning ilmiy yechimi sifatida dissertant yangi – “huquqiy norma ijodkorligi” tushunchasini nazariya va rasmiy qonunchilik hujjatlariga kiritishni asoslab bergan.

Tadqiqotchi tomonidan muallif ta‘rifi sifatida “huquqiy norma ijodkorligi bu – vakolatli davlat organlari yoki mansabdor shaxslar, shuningdek fuqarolar tomonidan bevosita (referendum orqali) huquqning muayyan sohasi doirasida huquqiy normalarni o‘rnatish, o‘zgartirish, shuningdek ularni bekor qilishga qaratilgan faoliyatdir” tushunchasi taklif qilingan. Dissertantning fikricha, mazkur ta‘rifda “huquqiy norma ijodkorligi” tushunchasidan foydalanilishi yuridik texnika umumiy qoidalari nuqtayi nazaridan to‘g‘ri hisoblanadi.

Dissertant tadqiqot predmetini aniqlashtirish maqsadida fuqarolar tushunchasi mazmunini aniqlashga urunib, norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki masalasi haqida gapirilganda aniq yondashuvni shakllantirib olish lozimligini ko‘rsatib bergan. Norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki masalasida faqat O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tushunilishi maqsadga muvofiq ekanligi, norma ijodkorligi davlat hokimiyatini amalga oshirishning eng asosiy shakllaridan biri bo‘lganligi sababli ushbu munosabatlarda xorijiy fuqarolar, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning ishtirok etishi, davlat suverenitetiga muayyan ma‘noda salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligi ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Tadqiqotchi norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki serqirra yuridik tabiatga ega ekanligini tahlil qiladi va o‘ziga xos bir qancha jihatlarini ajratib ko‘rsatadi. Fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida ishtirok etishi o‘zida sifatli qonunchilik bazasini shakllantirish usuli, bevosita demokratiyaning bir ko‘rinishi, shaxsiy-siyosiy huquq, jamoatchilik nazoratining shakli, fuqarolik jamiyatining zaruriy sharti, “crowdsourcing” tendensiyasining bir yo‘nalishi kabi xususiyatlarni

aks ettirishi konseptual jihatdan asoslab berilgan.

Yuqorida keltirilgan tahlillar umumlashtirilgan holda norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan: "Norma ijodkorligida fuqarolar ishtiroki – bu qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning yuqori sifat va xalqchilligini ta'minlash maqsadida fuqarolarni eshitish imkonini beruvchi, ularning fikr, istak va manfaatlarini aks ettirishga xizmat qiluvchi taklif, tashabbus, muhokama va boshqa turli shakllarda norma ijodkorligi jarayonida ishtirokiga qaratilgan demokratik jarayon hisoblanadi".

Dissertant doktrinal qarashlar (K.Czapanskiy, R.Manjoo, M.L.Flear, A.Vakulenko) va xalqaro huquqiy hujjatlar tahlili asosida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash va qabul qilish jarayonida fuqarolarning ishtirok etish shakllari va kafolatlarini yagona huquqiy hujjat – Norma ijodkorligi kodeksini ishlab chiqish orqali yaratishni taklif qilgan.

Tadqiqotchining qayd etishicha, fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida doimiy va faol ishtirok etishlari normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishga vakolatli davlat organlari faoliyatining qonuniy va samarali yo'lga qo'yilishiga xizmat qiladi. Ushbu nuqtai-nazarga kelishga sabab fuqarolar norma ijodkorligi jarayonida ishtirok etish jarayonida nafaqat normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari bo'yicha o'z takliflarini bildirishlari bilan birga, vakolatli davlat organlari faoliyati va ularning kelgusi ustuvor vazifalarini ham belgilashga turtki beradi.

Doktrinal qarashlar (V.Bagdasarov, K.Pearson, Y.Melody, A.Kiang, D.Steiger va boshq.) tahlili asosida dissertant jamoatchilik nazorati shaklida raqamli texnologiyalar asosida fuqarolar qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda jamoatchilik manfaatlarini, jamoatchilik fikrini hisobga olinish jarayoni bugungi kunda eng samarali, degan xulosaga kelgan.

Tadqiqotchi fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonidagi ishtirokini tasniflash orqali quyidagi shakllarini ajratib ko'rsatgan: "axborot olish"; "qonunchilik tashabbusi"; "huquqiy munosabatlar ishtirokchisi"; "umumxalq muhokamasi"; "jamoatchilik muhokamasi"; "jamoatchilik nazorati"; "referendum" va boshqalar.

Dissertatsiyada fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki tasniflash metodi orqali bir necha mezonlarga ko'ra tasniflangan va mazkur yondashuv tadqiqot predmeti haqida yanada aniq va kengroq xulosa chiqarish imkonini bergan. Tadqiqotchi tomonidan norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining qonuniylik, demokratizm, ochiqlik va shaffoflik, tenglik, fuqarolar ishtirokining ixtiyoriyligi kabi prinsiplari muhokama qilingan holda o'zaro hamkorlik va axborotdan erkin foydalanish kabi yangi fundamental prinsiplarni qonunchilikka joriy etish taklifi asoslantirib berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida ishtirokining huquqiy mexanizmlari**»ga bag'ishlangan bo'lib, uch paragrafni o'z ichiga olgan. Ushbu bobda norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining huquqiy asoslari tahlili, fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida ishtiroki asosiy shakllari hamda norma ijodkorligi jarayonida fuqarolarning samarali ishtirokini belgilovchi omillar tadqiq etilgan.

Tadqiqotchi norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining xalqaro huquqiy asoslarini tahlil qilgan holda, xalqaro huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilik hujjatlarining o'zaro aloqadorligining mustahkamlanish tendensiyasi huquq rivojining muhim obyektiv qonuniyatlaridan biri deb hisoblaydi.

Dissertatsiyada so'nggi yillarda norma ijodkorligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan 20 ta normativ-huquqiy hujjat, shu jumladan 2 ta qonun, Oliy Majlis palatalarining 1 ta qo'shma qarori, Prezidentimizning 1 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 3 ta qarori, 13 ta boshqa hujjatlarni qabul qilinganligi, ularda bosh g'oya huquqning bosh ijodkori xalq va uning manfaatlari etib belgilanganligini ko'rsatib berilgan.

Tadqiqotchi bugungi kunda tadqiqot predmetiga oid munosabatlar o'ndan ortiq qonun va qonunosti hujjatlaridan joy olganligini, mazkur munosabatlarning huquqiy asoslari bu kabi tarqoq holda ekanligi qonunchilikdagi bo'shliqlar bilan birga, norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokini to'laqonli amaliyotga joriy etishda qator qiyinchiliklar keltirib chiqarayotganligini ko'rsatib o'tgan. Xalqaro tajriba va doktrinal qarashlar tahlili asosida O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash va qabul qilish borasidagi asosiy huquqiy hujjat bo'lganligi sababli sohaga oid eng muhim tushunchalar aniq, tizimli va to'liq holda berilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasi birinchi qismida normativ-huquqiy hujjat qabul qilishga vakolatli davlat organlari mansabdor shaxslar sanalib qavs ichida "*bundan buyon matnda normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar deb yuritiladi*" deb belgilangan. Moddaning ikkinchi qismida esa referendum yo'li bilan fuqarolar normativ-huquqiy hujjat qabul qilishlari mumkinligi e'tirof etilgan. Moddaning ushbu tahrirda berilishi yuridik texnika nuqtayi nazaridan turli qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi ko'rsatib o'tilib, "normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar" tushunchasini "normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan subyektlar" jumlasiga o'zgartirish kerakligini asoslab bergan.

Tadqiqotchi tegishli huquqiy mexanizmlarning o'rnatilmaganligi fuqarolar ishtirokining ayrim shakllaridan to'laqonli foydalanishga imkon bermayotganligini ko'rsatib, O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunida fuqarolar tekinga yoki vakolatli davlat organi bilan tuzilgan shartnomalar asosida normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqishlari yoki normativ-huquqiy hujjatning eng yaxshi loyihasini tayyorlash bo'yicha o'tkaziladigan tanlovlar orqali norma ijodkorligi jarayonida ishtirok etishlari mumkinligi aytilsada, bu boradagi aniq tartib-taomillar belgilanmaganligi sababli amaliyotda fuqarolar ishtirokining mazkur shakli yo'qligini asoslab bergan. Muallifning fikricha, fuqarolar ishtirokining barcha shakllaridan samarali foydalanish uchun, avvalo, huquqiy asoslari tizimli va to'liq belgib berilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Dissertant huquqiy asoslar tahlili davomida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga joylashtirilish va uni o'tkazish tartib-taomillari

yetarli darajada belgilab berilmaganligini ko'rsatib o'tgan. Muallifning fikricha, jamaotchilik muhokamasiga oid eng muhim munosabatlar, jumladan, jamaotchilik muhokamasini o'tkazishga mas'ul subyektlar, muddatlar, jamaotchilik muhokamasini o'tkazildi, deb topish mezonlari (jamaotchilik muhokamasiga qo'yilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasi bo'yicha birorta taklif va mulohaza kelib tushmagan hollar) alohida hujjat bilan belgilanishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Tadqiqotchi norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki bilan bog'liq qonunchilik hujjatlarini ko'rib chiqish va ayrimlariga bugungi kun islohotlari va yangilanishlaridan kelib chiqib ba'zi o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatib o'tadi. Jumladan, eng muhim normativ-huquqiy hujjat turi hisoblangan qonun loyihalarining ishlab chiqilishi va qabul qilinish jarayonining protsessual tartibini belgilab beruvchi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reqlamenti to'g'risida" va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reqlamenti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarida palatalar qarorlarini ishlab chiqishda fuqarolar ishtiroki masalalari belgilanmaganligini qayd etib, parlament palatalarining fuqarolar bilan norma ijodkorligi sohasidagi hamkorligini yangi bosqichga olib chiqishda ular ishtirokini kengaytirish zarurligini asoslab bergan.

Tadqiqotchi "Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunning 12-moddasida qonun loyihalarini umumxalq muhokamasiga qo'yish tashabbusi qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan organlar va shaxslarga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qo'mitalariga tegishli ekanligi aytilsada, Qonunchilik palatasidan boshqa birorta subyektning mazkur tashabbusni amalga oshirish tartibi belgilanmagan. Muallifning fikricha, qonun loyihalarini umumxalq muhokamasiga qo'yish tashabbusini amalga oshirish tartibining qonunchilik hujjatlaridan joy olishi umumxalq muhokamalari borasidagi amaliyotlarning ko'payishiga va pirovardida qabul qilinayotgan qonunlarning xalqchil bo'lishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining huquqiy asoslaridan biri sifatida "O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini tahlil qiladi hamda Qonunning 12-moddasi 6-qismida Fuqarolar tashabbuskor guruhini ro'yxatga olish rad etilgani taqdirda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi asosli javob beradi mazmunidagi normaga e'tibor qaratadi. Muallifning fikricha, qonunda fuqarolar tashabbuskor guruhini ro'yxatga olishni rad etish asoslari aniq belgilab berilishi kerak.

Dissertant olimlar (M.Axmedshayeva, P.Mikuli, G.Kuca, T.Aitamurto, V.Androshuk, E.Tulyakov, Sh.Yakubov, M.M.Mamasiddiqov, A.A.Otajonov, C.Barnard, A.Reale, F.Hendriks) tadqiqotlarini tahlil qilgan holda norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining axborot olish, normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash bo'yicha takliflar bilan chiqish, fuqarolik-huquqiy munosabatlar asosida, umumxalq muhokamasi va jamaotchilik muhokamasi, jamaotchilik nazorati, referendum kabi asosiy shakllarini ajratib ko'rsatadi.

Tadqiqotchi norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki shakllarini tahlil qilish asnosida mazkur shakllarni samarali amalga oshirish vositalariga e'tibor qaratadi. Jumladan, fuqarolar va vakolatli davlat organlari xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati, vakolatli davlat organlari faoliyatining ochiqligi, maxsus elektron platformalar va boshqa vositalar.

Muallifning fikriga ko'ra fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida ishtirok etishi ikki tomonlama xarakter kasb etar ekan, fuqarolar va davlat organlari mansabdor shaxslarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish quyidagi jihatlarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak:

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash va qabul qilish jarayonining ko'p vaqt, qo'shimcha kadrlar shtati hamda moddiy texnik resurslar talab etishining oldini olish maqsadida fuqarolar norma ijodkorligi faoliyatiga oid to'liq va tizimli ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak;

vakolatli davlat organlarining mansabdor shaxslarida, avvalo, fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida ishtirok etishi sifatli qonunchilik hujjatlari qabul qilinishining kafolati bo'lib xizmat qilishi to'g'risida sog'lom qarashlar shakllanishi kerak;

fuqarolarda normativ-huquqiy hujjat qabul qilishga vakolatli davlat organlariga nisbatan ishonch ruhi paydo bo'lishi kerak;

o'z navbatida vakolatli subyektlar norma ijodkorligi faoliyatida mas'uliyat bilan yondashishlari va fuqarolarning huquqlarini hurmat qilishlari kerak;

fuqarolar normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirayotganda taklif va tavsiyalarning asosli va maqsadga muvofiq bo'lishiga hamda nafaqat shaxsiy, balki jamiyat va davlat manfaatlari uchun ham foydali bo'lishiga e'tibor qaratishlari lozim;

vakolatli davlat organlari norma ijodkorligi faoliyatida samarali ishtirok etishlari uchun fuqarolarga doimiy ravishda qulayliklar yaratib borishni ustuvor vazifalardan biri sifatida o'z oldilariga qo'yishlari kerak.

Dissertant olimlar va xalqaro tajribani tadqiq qilgan holda norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki mexanizmining samarali tarzda olib borilishiga ta'sir etuvchi omillardan biri – bu shubhasiz, vakolatli davlat organlari faoliyatining ochiqligi hisoblanadi degan qat'iy xulosaga kelgan.

Tadqiqotchi norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokida elektron platformalarning ahamiyatini tahlil qilgan holda Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali – regulation.gov.uz muhokamalarda g'ayriaxloqiy, maynavozchilik ko'rinishida taklif bildiradigan foydalanuvchilarga nisbatan ta'sir chorasi sifatida muayyan muddatga taklif qoldirish imkoniyatini bloklash maqsadga muvofiq ekanligini asoslab bergan.

Dissertant sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llagan holda shaxsiy kabinet yoki elektron pochta orqali har bir taklif bildiruvchiga javob xati yo'llash orqali munosabat bildirish amaliyotini joriy qilishni taklif qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining huquqiy asoslarini takomillashtirish tendensiyalari**» deb nomlanib, ushbu bobda norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokiga oid xorijiy davlatlar

tajribasi hamda tegishli qonunchilikni takomillashtirishning asosiy yoʻnalishlari tadqiq etilgan.

Dissertant tomonidan norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokiga oid xorijiy mamlakatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, GFR, Ispaniya, Italiya, Portugaliya, Shveysariya)ning ijobiy tajribasi oʻrganilgan va qiyosiy-huquqiy tahlili etilgan.

Tadqiqotda AQSHda norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki borasidagi tajribasi oʻrganilganda milliy amaliyotga joriy etish mumkin boʻlgan bir qancha ilgʻor yutuqlar aniqlangan. Jumladan, mamlakat parlamenti binosining tashrif buyuruvchilar uchun ochiqligi, qonun loyihalarining muhokamasini kuzatib borish imkonini beruvchi maxsus joylarning tashkil etilganligi, har yili fuqarolar ishtirokiga oid yoʻriqnomalarning chiqarilishi hamda qonun ijodkorligi jarayoni va bosqichlarini oson va sodda tilda tushuntirib beruvchi qoʻllanmalarning muntazam chop etib borilishi shular jumlasidandir.

Buyuk Britaniya tajribasidagi jamoatchilik maslahatlarini oʻtkazish vaqti, davomiyligi, maslahat predmetining aniqligi, ishtirokchilar uchun ochiqligi, olingan takliflarga munosabat bildirilishi, maslahat jarayonining yoʻriqnomasi kabi muhim masalalarni belgilab beruvchi alohida huquqiy hujjatning qabul qilinganligiga eʼtibor qaratilgan. Umuman olganda dissertatsiyaning “Fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida ishtiroki borasida xorij tajribasi” paragrafida norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokini tartibga solishga qaratilgan alohida qonun hujjati qabul qilingan Shveysariya, Portugaliya kabi davlatlar amaliyoti tadqiq etilgan.

Dissertant ilgʻor xorijiy tajriba sifatida Ispaniyada normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishga vakolatli davlat organlarining yillik xarajatlar smetasi tasdiqlanayotganda fuqarolar ishtiroki bilan bogʻliq xarajatlar ham hisobga olinishini alohida eʼtirof etadi va milliy amaliyotga joriy etish taklifini beradi.

Tadqiqotda GFRda jamoatchilik eshituvi birinchi navbatda axborot olish xususiyatiga ega hisoblanishi tadqiq qilingan. Ushbu davlatda axborot olish xarakteri bilan birga jamoatchilik eshituvi oʻzaro qarama-qarshi qarashlarni oʻzaro uygʻunlashtirish vazifasini ham bajarishi koʻrsatib berilgan. Germaniya amaliyoti koʻrsatadiki, jamoatchilik eshituvi iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy masalalar, ilmiy tadqiqot faoliyati boʻyicha olib borilganda yanada samarali natijalar keltirishi asoslangan.

